2. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hay'atining kengaytirilgan yig'ilishidagi Prezident Shavkat Mirziyoyevning nutqi // 2021
3. Арипова, А. Х. (2021). Нутқ моҳиятини ташкил этувчи муҳим восита. Scientific progress, 1(6).
4. Абдужалилов, Д., & Арипова, А. (2021). КУЛЬТУРА ОБЩЕНИЯ СОТРУДНИКОВ ОВД. Scientific progress, 2(1), 328-332.
5. Истамов, Н., Убайдуллаев, С., Махмудхужаев, Ж., & Бобохонов, Ш. (2021). ТУРИЗМ–КАК ВЕДУЩИЙ СЕКТОР МИРОВОЙ ЭКОНОМИКИ. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF INNOVATIONS ON TOURISM MANAGEMENT AND FINANCE, 2(4), 1-5.
6. Убайдуллаев, С., Арипова, А., & Истамов, Н. (2021). Туризм в Узбекистане. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF INNOVATIONS ON TOURISM MANAGEMENT AND FINANCE, 2(4), 6-10.
7. Абдувалиев, Н., & Арипова, А. (2021). ВАЖНОСТЬ КУЛЬТУРЫ ОБЩЕНИЯ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ИНСПЕКТОРОВ ПРОФИЛАКТИКИ ПРАВОНАРУШЕНИЙ. Scientific progress, 2(1), 333-335.



THE ROLE OF FAMILY BUSINESSES IN THE ECONOMY OF THE COUNTRY: THE EXAMPLE OF BUKHARA REGION

Jafarova Khilola Khalimovna, lecturer of Bukhara state University " Tourism and hotel management " department
h.x.jafarova@buxdu.uz

Annotation. Bukhara in the region family enterprises big share occupies _ The importance of family enterprises in the economy of Bukhara region is increasing year by year. In the province, family enterprises are mainly in the fields of agriculture, forestry and fisheries, industry, construction, trade, transportation and storage, accommodation and food services, information and communication, as well as health and social services. are conducting their activities.

According to the Law of the Republic of Uzbekistan "On Family Entrepreneurship", family entrepreneurship is an entrepreneurial activity carried out by family members with the purpose of obtaining income (profit) at the risk and under their own property responsibility. As defined in this law, family business can be carried out with or without the establishment of a legal entity at the discretion of the family members.

Family businesses are based on foreign interest of relatives in the results of the labor. There is an opportunity to traintransfer production secrets and transfer give the business to children, i.e. provide pre-succession of generations. Family entrepreneurship provides creates a stable socio-economic what kind of situation in society shapes positive, future-oriented business.

Family entrepreneurship is necessary for business self-realization of enterprises the initiative of citizens, their intelligence; without it sustainable economic development is impossible. One entrepreneur in the family system -entrepreneurship usually provides works for up to five other family members, removing them from the category of socially needy into the category of self-sufficient citizens of the country. In other words, it is an important tool combating poverty. It must not be forgotten about the advantages of families - business thanks to significantly less, than in big business, the cost of creation work places. Therefore, the development of family entrepreneurship can be used as an effective and cheaper tool for creating new jobs in order to reduce unemployment.



The organizational-legal form of a family business, which is carried out by establishing a legal entity, is a family enterprise. Forms of conducting family business activities without establishing a legal entity are sole entrepreneurship, as well as crafts and household (housework) forms, as defined by legislation.

As recognized by the law, a family enterprise is based on the personal labor of its participants for the production of goods (performance of work, rendering of services) and realization on the basis of discretion, common property owned by the participants of the family enterprise in shared or joint ownership, as well as family is a small business entity established on the basis of the property of each of the participants of the enterprise .

The basis of family business is the formation of family members and the demographic composition of the family and the number of members by age, the form of family business and its scope.

It should be emphasized that the family reproduces the working forces of the entire society by performing responsible functions such as preservation and development of human capital. In this regard, family members participate not only in family business, but also in other enterprises and organizations as labor force or specialists. It serves as a basis for dividing family members according to age, education and skills. From this point of view, the organization and management of family business depends on the demographic status of the family, which can be called the demographic potential of the family.

As mentioned earlier, family business is carried out in three forms and is based on the work of family members. A sole proprietorship is run by one family member. Other family members can participate in it as assistants. The household form of family business is a form of production or service performed by family members individually or in a group. A family business is managed by family business participants and is based on their work.

The importance of family businesses in the economy of Bukhara region is also increasing year by year, which can be seen in the following statistical indicators of the region for 2023 [3]. In the province, family enterprises are mainly in the fields of agriculture, forestry and fisheries, industry, construction, trade, transportation and storage, accommodation and food services, information and communication, as well as health and social services. are conducting their activities (Table 1).



Table 1.

The number of family businesses operating in Bukhara region by direction (as of August 2023)

Source : Bukhara province statistics department official website

<https://www.buxstat.uz/uz/>

If we analyze the above table of family enterprises operating in Bukhara region, according to the table, a total of 3450 family enterprises are operating in the region. As of August 2023, 730 family enterprises were registered in the city of Bukhara, which makes up 21% of the region.


Family business is a very young area in the economy of new Uzbekistan, and as a result, it is not yet fully formed and not fully explored.

	village , forest and fish economy	Industry	Construction	Trade	Transportation and	Live and eating according to services	Information and contact	Health storage and social services show	Others	Total enterprises the number
Olot district	15	49		57		41			5	167
Bukhara district	57	59	1	62	2	41		6	33	261
Wobkent district	19	90	1	122	17	86	5	6	13	359
Gijduvan district	59	184	1	149	5	120	1	6	17	542
Kogon district	19	52	5	61	2	23	1	6	7	176
Karakol district	11	66	1	95	2	80	2	1	26	284
Guard market district	7	14		7		6		1	1	36
Peshku district	12	40	1	78	1	22		1	17	172
Romitan district	19	28	2	35	1	22	3		11	121
Lively district	13	56		17	2	30	1	6	4	129
Shafirkon district	39	61	5	83	2	36		2	17	245
Bukhara city	21	153	6	135	15	307	4	29	60	730
Kogon district	11	63	1	89	2	41	2	6	13	228
Bukhara region	302	915	24	990	51	855	19	70	224	3450



Family businesses differ from non-family companies in that they have competitive advantages, such as:

- simple organizational structure;
- mobility;
- continuity of business when management is passed to the next generation without problems;
- unity of owner and manager;
- financial autonomy and therefore a low level of debt;
- high turnover rate of funds;
- existence of intangible assets (SB brand, know-how, etc.);
- purposeful investment in the education of family members.



Graph 1. Bukhara in the region family of enterprises districts in the section analysis (as of August 2023) .

Bukhara in the region family of enterprises the most many p the number Bukhara in Gijduvan , Vobkent , Karakol , Bukhara _ in the district own activities walking coming (Graph 1)

These numbers are proof that thousands of families in the Bukhara region are improving their well-being thanks to entrepreneurship, and that our compatriots are



realizing that it depends on them first of all to make their home prosperous and their table full, and that there are enough conditions and opportunities for this.

List of used literature:

1. <https://familybusinessunited.com/2020/10/27/globally-most-businesses-are-family-owned/>
2. <https://beroc.org/en/media/video/presentation-of-the-global-entrepreneurship-monitor-report/>
3. <https://www.buxstat.uz/uz/>



MA'NAViy-HUQUQIY TARBIYA BERISH MASALASI SHARQ MUTAFAKKIRLARI MEROSIDA

Amirqulov Azamjon Joniql o'g'li

“Boshlang'ich ta'lim metodikasi” kafedrası o'qituvchisi

Denov, O'zbekiston

E-mail: azamjonamirqulov97@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada ma'naviy-huquqiy tarbiya berishning nazariy asoslari sharq mutafakkirlari asarlarida ilmiy jihatdan yoritib berilgan bo'lib, keltirilgan tavsiyalar ma'naviy-huquqiy tarbiya berishning bugungi kundagi holatiga amaliy yordam beradi.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, meros, ma'naviyat, huquq, odob, rivojlanish, shakllanish, huquqiy ong, huquqiy bilim..

ПРОБЛЕМА ДУХОВНО-ПРАВОВОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ВОСТОКЕ В НАСЛЕДИИ ЕГО МЫСЛИТЕЛЕЙ

Амиркулов Азамжон Жоникул ўғли

Преподаватель кафедры «Методика начального образования»

Денау, Узбекистан

azamjonamirqulov97@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В статье представлены теоретические основы нравственно-правового воспитания, это научно объяснено в трудах восточных мыслителей, а данные рекомендации обеспечивают практическую поддержку современного состояния нравственно-правового воспитания

Ключевые слова: образование, обучение, наследие, духовность, право, манеры, развитие, формирование, правосознание, правовое знание

THE PROBLEM OF SPIRITUAL AND LEGAL EDUCATION IS EAST IN THE LEGACY OF HIS THINKERS

Amirqulov Azamjon Joniql o'g'li

Teacher of the "Methodology of Primary Education" department

Denau, Uzbekistan

azamjonamirqulov97@gmail.com



ANNOTATION

The theoretical foundations of moral and legal education are presented in the article. It is scientifically explained and cited in the works of Eastern thinkers. The recommendations are practical for the current state of moral and legal education and will help.

Key words: education, training, heritage, spirituality, law, manners, development, formation, legal consciousness, legal knowledge

Kirish (Introduction)

Yangilanib borayotgan jonajon O'zbekistonimizda olib borilayotgan tub islohatlar mazmuni yosh avlodni ma'naviy yetuk, shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan, intellektual salohiyatli barkamol avlod qilib tarbiyalashga qaratilgan. Olib borilayotgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy sohalaridagi islohatlar inson huquqi va erkinliklarini himoya qiluvchi demokratik va fuqarolik jamiyatini barpo etishni ko'zda tutadi. Amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning bosh maqsadi ham insonning moddiy va ma'naviy manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Bunday mashaqqatli murakkab yo'lda bizga doimo mash'ala bo'ladigan, yo'limizni charog'on yoritib turadigan ota-onalarimiz, bobolarimiz, ajdodlarimizning ibratli hayot saboqlari bor.

Milliy qadriyatlarni tiklash, ma'naviyatni yuksaltirish, ayniqsa sharqona odob-ahloq an'alariga e'tiborni kuchaytirish shular jumlasidandir. Yurtimizda buyuk rejalar va bunyodkorlik ishlari tarixiy an'ana va tajribalarga asoslanib, aql-u idrok bilan amalga oshirilmoqda. Shu o'rinda yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev «Ma'naviy ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»-gi PQ 5040-son 1Qarorni 26.03.2021 imzoladilar unda ma'naviy ma'rifiy jarayonlarni tashkil etishda yaxlit tizim mavjud emas, xalqimiz, ayniqsa yoshlarni ma'naviy tahdidlardan himoya qilish borasida yetarli darajada tashkiliy-amaliy va ilmiytadqiqot ishlari olib borilmayapti, ushbu yo'nalishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda xususiy sektorning ijtimoiy hamkorligi samarali yo'lga qo'yilmagan¹- deb keltirilganligi va sohada qilinishi kerak bo'lgan muammolar borligi ma'naviy-huquqiy tarbiya berishning dolzarbligini belgilaydi.

O'tmishga nazar solsak, o'lkamizdan etishib chiqqan buyuk mutafakkirlarimiz asarlarida ma'naviy-huquqiy tarbiya berishga oid qanchadanqancha ilmiy izlanishlar guvohi bo'lamiz. Tarbiyaning bosh maqsadi – yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma'naviy-tarixiy an'analarga, urf-odatlarini hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib amalga joriy etishdir.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma'naviy ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»-gi PQ-5040-son Qarori.- Toshkent. 26.03.2021yil



Yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalashda, birinchi navbatda Sharq mutafakkirlarining qimmatli ma'naviy meroslari muhim dasturil amal ahamiyatiga ega bo'ladi. Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Faroniy, Imom Ismoil al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Amir Temur, Muhammad Taraay Ulubek, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur singari olamga mashhur allomalarining ijtimoiy, siyosiy va falsafiy qarashlari barcha zamonlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. O'z o'tmish madaniy merosini chuqur o'rganmagan va e'zozlamagan, ajdodavlodlari bosib o'tgan tarixiy yo'lni idrok etmagan, milliy mustaqillik yo'lida jon fido qilgan buyuk ajdodlar faoliyatidan xabardor bo'lmagan inson o'zligini hech qachon anglab yetolmaydi. O'tmish madaniy merosini o'rganish murakkab jarayonsanaladi.

Turon zaminimiz xalqlari axloqiy tarbiya sohasida boy an'analarga ega. Axloqqa oid dastlabki fikrlar «Avesto» kitobida, qadimgi bitiklarda va boshqa yozma manbalarda o'z ifodasini topgan. Bulardan tashqari, o'zbek xalqi o'rtasida keng tarqalgan pandnomalar, o'gitlar va odobnomalarda, xalq pedagogikasida, falsafiy risolalarda, allomalar merosida axloqiy masalalarga keng o'rin berilgan. Barkamol insonni tarbiyalash, voyaga yetkazish haqida musulmon Sharqi axloqi bir qator asarlarni yaratgan. Chunonchi, Kaykovusning 2«Qobusnoma», Sa'diyning «Guliston», «Bo'ston», Amir Temurning «Temur tuzuklari», Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston», Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub», Xusayn Voiz Koshifiyning «Axloqi muhsiniy» va boshqalarni ko'rsatishimiz mumkin. Ibn Sino: «Axloq har bir kishi uchun o'z-o'zini idora qilishi ilmidur» deb uning mazmunini ifodalab bergan edi. Axloq me'yori va qoydalari tarixiy taraqqiyot davomida tarkib topib, takomillashib borgan va kishilarda birgalikda yashash sharoitidan, tabiiy ehtiyojidan, ijtimoiy manfaatlari va hayotiy talablaridan kelib chiqqan va ular muayyan tarixiy davrdagi kishilarning xati-harakati, yurish-turishi va boshqalarga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'lgan. Ana shu tartib – qoydalarsiz biron-bir jamiyat bo'lmagan va bo'lmaydi ham.

Alisher Navoiyning asarlari hukmdorga qarata «O'zingga tilamaydiganingni xalqqa ham tilama» yoki xalqni qiynama: aks holda o'z nomingni bulg'alaysan» kabi ibratli gaplari alohida e'tiborga loyiq. Shoh buloqqa o'xshaydi, qolganlar esa bo'lakdan suv tortuvchi anhorlar. Agar buloqda suv shirin bo'lsa, anhorlardagi suv ham ochiqdir... Demak, shoh adolatli va yaxshi ma'naviy sifatlarga ega bo'lishi, qolganlar esa uning orqasidan borishlari lozim, - deb yozadi Ahmad Donish, Amir Temur davlatni tashkillashda hukmdorga davlatni o'zi boshqarganidek boshqarishni maslahat bergan. O'zining mashhur «Tuzuklar»ida «Men davlatni mo'minlik, insonparvarlik, sabr bilan boshqardim. Hammani harakatsizlik niqobi ostida kuzatdim, dushmanlarimga qanday munosabatda bo'lgan bo'lsam, do'stlarimga ham shunday munosabatda edim», deb yozadi. Keyin u yana shunday deb yozadi:

² R. Mavlonova, N. Vohidova, N.Rahmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. - Toshkent. **Fan va texnologiya**. 2010y



«Yaxshilikni yomonlikka qil, shunda kim senga g'arazli munosabatda bo'lgan bo'lsa, sening do'stinga, himoyachinga aylanadi»..

Buyuk ma'rifatparvar **Abdulla Avloniy** «Turkiy guliston yohud axloq» asarida axloq «insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdur», - deydi. Aynan axloq, uning ijtimoiy ahamiyati haqida ma'lumot beruvchi mazkur manbada alloma yaxshi va yomon xulqlarga to'xtalib o'tadi. Bu xislatlar ma'naviy-axloqlilikning asosiy sifatlari sanaladi. Ular asosida Vatanga muhabbat va sadoqat, mehnatga axloqiy munosabat, o'z atrofida qilargalarga axloqiy yondashuv, shuningdek, har bir o'quvchining o'zi va shaxsiy xulq-atvoriga munosabati qaror toptiriladi.

Huquqiy ong huquqiy madaniyatning g'oyat muhim qismlaridan biri bo'lib, u eng avvalo, odamlarning qonunga munosabatlarini ifodalovchi qarashlari va e'tiqodlaridan, ularning huquqiy tasavvurlaridan, intilish va tuyg'ularidan iboratdir. Kelajak avlodlarga Sharq mutafakkirlari asarlaridan foydalanib hayotiy tajribalarni o'rgatish komil inson tarbiyasida o'z ta'sirini etkazadi.

Xulosalar (Conclusions)

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish joizki, huquqiy ong huquqiy madaniyatning g'oyat muhim qismlaridan biri bo'lib, u eng avvalo, odamlarning qonunga munosabatlarini ifodalovchi qarashlari va e'tiqodlaridan, ularning huquqiy tasavvurlaridan, intilish va tuyg'ularidan iboratdir. Kelajak avlodlarga Sharq mutafakkirlari asarlaridan foydalanib hayotiy tajribalarni o'rgatish komil inson tarbiyasida o'z ta'sirini etkazadi.

Bibliografik havolalar (References)

1. O'zbekistan Respublikasi Prezidentining «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»-gi PQ-5040-son Qarori.- Toshkent. 26.03.2021yil.
2. R. Mavlonova, N. Vohidova, N.Rahmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi.-Toshkent. Fan va texnologiya. 2010y.
3. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. Toshkent, 1996-y.



PYTHON YORDAMIDA BULUTL TEXNOLOGIYALARNI O'RGATUVCHI TELEGRAM BOT ISHLAB CHIQISH

S.P. Kutliyev¹, Sh.F. Reyimbayev², Z.M.Rahimberdiyev³

¹TATU Urganch filiali assistent o'qituvchisi, q.sardor.86@gmail.com

²TATU Urganch filiali talabasi, reyimbayevsherxon@gmail.com

³TATU Urganch filiali talabasi, zayniddin4317377@gmail.com

Abstract: In this article, practical work on the creation and use of a telegram bot that teaches cloud technologies using the Python programming language has been developed.

Annotatsiya. Ushbu maqolada python dasturlash tili yordamida bulutli texnologiyalarni o'rgatuvchi telegram botni yaratish va undan foydalanish bo'yicha amaliy ishlar ishlab chiqilgan.

Key words: windows, pip install, telegram bot, BotFather, APIToken.

Kalit so'zlar: windows, pip install, telegram bot, BotFather, APIToken.

Python – bu o'rganishga oson va shu bilan birga imkoniyatlari yuqori bo'lgan oz sonlik zamonaviy dasturlash tillari qatoriga kiradi. Python yuqori darajadagi ma'lumotlar strukturasi va oddiy lekin samarador obyektga yo'naltirilgan dasturlash uslublarini taqdim etadi.

Bulutli texnologiyalar - bu model iste'molchiga ATni servis sifatida internet orqali namoyon qiladi. Bulutli hisoblashlarning yuzaga kelishida “virtualizatsiya” texnologiyalarining ahamiyati juda katta hisoblanadi. Birinchi bo'lib 1960-yilda virtualizatsiya texnologiyalari IBM taklif qilingan ammo gimmat meynfreym kompyuter texnologiyalarini arzon x86 protsesorli kompyuter serverlariga o'tgandan so'ng virtualizatsiya termini ancha vaqtgacha esdan chiqarildi. 2000- yildan boshlanib holat o'zgarib boshladi, shu yillarga qadar VMware x86 razryadli virtualizatsiyada monopoliyani qo'lga kiritdi2). 2005-yilda VMware kompaniyasi virtual mashinalarni DTdan foydalangan xolda bepul tadbqiq qildi. 2006-yilda Microsoft kompaniyasi “Microsoft virtual PC” Windows versiyasini ishga tushirildi. 2006-yilda Amazon kompaniyasi o'z qurilmalarida virtual serverlarni kengaytirish orgali “Amazon Elastic Compute Cloud” yuzaga keldi buning yana asosiy sabablaridan biri virtual serverlarni boshqa qurilmalarga (iste'molchilarga) ijaraga berish orqali bulutli texnologiyalarni kelib chiqishiga turtki bo'ldi.



Bot - bu foydalanuvchilarning ehtiyojlarini aniqlaydigan va keyin ularni qondirishga yordam beradigan dastur. Shuningdek, bunday dasturlar virtual suhbatdoshlar yoki suhbatdosh dasturlari, suhbatdosh AI botlari (sun'iy intellekt), AI yordamchilari, aqlli virtual yordamchilar, virtual mijoz yordamchilari, raqamli yordamchilar, suhbat agentlari, virtual agentlar, suhbat interfeyslari va boshqalar deb ataladi.

Telegram botlar - bu maxsus ishlab chiqilgan dasturlar yordamida boshqariladigan maxsus akkauntlar bo'lib hisoblanadi.

Ular quyidagicha vazifalarni bajarishi mumkin:

- chatlarda buyruqlarni bajarishi;
- saytdagi ma'lumotlarni izlab topishi;
- buyruqlarga mos ravishda javoblarni shakllantirish;
- foydalanuvchi buyruqlarini bajarish.


Shunday qilib, *bot* -bu foydalanuvchilarga yordam berish uchun Internet orqali odamlar bilan muloqot qilishni taqlid qilish uchun mo'ljallangan kompyuter dasturi, aloqaning eng tabiiy shaklidan foydalangan holda echimlarni taklif qilish - foydalanuvchi uchun tushunarli tilda, ya'ni uning muammolarini hal qilish uchun onlayn muhit orqali odam.

BotFather - BotFather, Telegram Messenger xizmatidagi botlarni yaratish uchun ishlatiladigan ofitsial botdir. BotFather orqali foydalanuvchilar Telegram platformasida o'zlariga maxsus botlar yaratishlari va ularga kerakli sozlamalarni o'zgartirishlari mumkin. BotFather, Telegram botlarining boshlang'ich sozlamalarini o'zgartirish, API tokenlarni olish va boshqalar kabi vazifalarni bajarish uchun foydalaniladi. Ushbu bot orqali yangi botlar yaratish va ularni boshqarishning asosiy qismi amalga oshiriladi.

Bot boshqa segmentlarga bo'linadigan vazifalarni avtomatlashtirishi mumkin. Masalan: mijozlarni qo'llab-quvvatlash, so'rovlar.


Telegramda bot yaratish uchun avval kompyuterning windows sistemasiga *pip install -U ayogram* va *pip install python -telegram bot* va yana bir nechta maxsus kutubxonalarini o'rnatiladi [1, 9-b.].

Telegram bot yaratish uchun eng avval BotFather boti orqali yangi bot hosil qilamiz va shu botning tokenini olamiz. Telegram botning tokenini olganimizdan keyin python tili yordamida botni yozishni boshlaymiz. Bulutli texnologiyalarni o'rgatuvchi elektron qo'llanma yoki botda quydagi bo'limlar mavjud bo'ladi: darslar , kitoblar , videolar va testlar.(1-rasm)



1-rasm

Darslar bo‘limi 17-ta darsdan iborat bo‘lib, unda bulutli texnologiyalarni o‘rgatuvchi fayllar joylangan. (2-rasm).




2-rasm.

Kitoblar bo‘limida bot sizga bulutli texnologiyalarni o‘rgatuvchi kitoblarni taqdim etadi. Telegram botga hujjatlar bo‘limi kiritilgan bu bo‘limda bulutli texnologiyalar turlari haqida word va taqtimot varyandlari mavjud. Videolar



bo'limida bulutli texnologiyalar va ularning turlari haqida videolar joylashtirilgan. Siz bu videolarni youtube platformasi orqali tomosha qilishngiz mumkin. (3-rasm).



3-rasm.

Testlar bo'limida o'quvchilar bulutli texnologiyalar mavzusida testlar ishlab o'z bilimlarini mustahkamlashi mumkin. Testni ishlab bo'lganidan so'ng umumiy natijani kotishimiz mumkin. Ishlangan test natijalari, ism sharf, sanasi va topilgan bali bilan jadvalga saqlab qoyiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytsa bo'ladi-ki, telegram botlar yordamida shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish jarayoni zamonaviy, ko'p tarmoqli, predmetga yo'naltirilgan elektron o'quv vositalarini ishlab chiqishni va foydalanishni talab etadi. Ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish va ularning manfaatdorligini (motivatsiyasini) oshirishga ko'maklashish imkoniyatlariga ko'ra, shuningdek, har xil turdagi elektron o'quv axborotlarining uyg'unlashuvi, interfaollik, moslashuvchanlik sifatlariga ko'ra elektron qo'llanmalar foydali va mahsuldor ta'lim texnologiyasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. aiogram Documentation Release 2.21 Illemius / Alex Root Junior Jun 21, 2022
2. X.SH. Musayev, A.M.Qayumov. Python dasturlash tili . (o'quv qo'llanma).- T.:<<Aloqachi>,2020.-144c.
3. Madaminov Uktamjon Ataxanovich, Mamatqulov Mirjalol Saminjon o'g'li. MA'LUMOTLAR TUZILMASI VA ALGORITMLARI. Innovations in technology and science education. Vol. 2, Issue 9. 05/2023, 10-16.



4. Madaminov Uktamjon Ataxanovich, Bayramova Shohida Dilshodbek qizi. ZAMONAVIY WEB TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA MULTIMEDIALI WEB ILOVA ISHLAB CHIQISH. Innovations in technology and science education. Vol. 2, Issue 9. 05/2023, 17-24.
5. Madaminov Uktamjon Ataxanovich, Karimova Mumtozbegin Sobirboy qizi. OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA WEB DASTURLASHNI O'RGATUVCHI AMALIY LOYIHA ISHLAB CHIQISH. Innovations in technology and science education. Vol. 2, Issue 9. 05/2023, 25-30.
6. Madaminov Uktamjon Ataxanovich, Bektemirova Risolat Shukurla qizi. PYTHON DASTURLASH TILI. Innovations in technology and science education. Vol. 2, Issue 9. 05/2023, 31-36.
7. Madaminov Uktamjon Ataxanovich, Qalandarova Kamola Shermat qizi. TA'LIMDA ZAMONAVIY RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA ULARDAN FOYDALANISHNI O'RGATUVCHI ELEKTRON RESURS ISHLAB CHIQISH. Innovations in technology and science education. Vol. 2, Issue 9. 05/2023, 37-42.
8. Madaminov Uktamjon Ataxanovich, Abdalova Xilola Botirovna. WEB DASTURLASHNI O'RGATUVCHI MOBIL ILOVA ISHLASH CHIQISH TEXNOLOGIYASI. Innovations in technology and science education. Vol. 2, Issue 9. 05/2023, 43-49.
9. U.A. Madaminov, O.K. Ataboev, D.R. Kodirov, M.N. Jumaniyazov. Java dasturlash muhitida shart operatorlari (if, switch case). oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences. volume 2 | issue 5. 2022/5. 1203-1208 p.
10. u.a. madaminov, d.r. kodirov, e.d. jolimbetova. vizual dasturlash yordamida amaliy masalalarni yechish. ta'lim fidoyilari. vol.1, issue 1. 2022/6. 77-85.
11. Madaminov Uktamjon Ataxanovich, Qodirov Davronbek Rajabboy o'g'li, Avezov Mardonbek Abdullayevich. Use of visit karakalpakstan mobile app in the development of tourism in the republic of karakalpakstan. international journal on human computing studies. 2021. p-ISSN: 2615-1898. Volume: 03 Issue: 8. 13-17 p.
12. Allaberganova Muyassar Rimberganovna Madaminov Uktamjon Ataxanovich, Kutliyev Sardor Pulatovich, Avezov Mardonbek Abdullayevich, O'razboyev Nurbek Ulug'bek o'g'li. Methodology of electronic educational resources creation and use of applications. International Journal of Applied Research 2020; 6(6): 133-135.
13. Madaminov Uktamjon Ataxanovich, Urazboyev Kamolbek Ulugbek o'g'li. A Program Which Can Teach Students about Java Program Language And Its Functions. International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology. Vol. 8, Issue 10, 2021/10. 2350-0328.
14. Uktam Madaminov Ataxanovich, Sadikov Mahmudjon Akmuratovich, Development and application of computer graphics training software in information technology. 2021 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT) 2021/11/3.



MEHNAT MUHOFAZASI VA EKOLOGIYA UYG'UNLIGI

Haminjonov Ulug'bek Jakbarali o'g'li

1-son kasb-hunar maktabi maxsus fan o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi yo'nalishida tahsil oluvchi talabalarga ekologiya fanining kerakligi va o'rni haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Ekologiya, populyatsiya, autekologiya, biosfera, landshaft, ijtimoiy ekologiya, koinot ekologiyasi, urbanizatsiya, taqqoslash, tajriba, modellashtirish, tasvirlash

Ekologiya, biologiya fanlari turkumiga mansub bo'lgan mustaqil fan hisoblanadi. U tirik organizmlarning yashash sharoiti va shu organizmlarning o'zlari yashab turgan muhit bilan o'zaro murakkab munosabatlari hamda shu asosda tug'iladigan qonuniyatlarni o'rganadi. Ekologiya; tushunchasini fanga birinchi bo'lib 1866 yilda nemis biologi E.Gekkel tomonidan kiritilgan. «Ekologiya» yunoncha so'z bo'lib uning ma'nosi tirik organizmlarning yashash sharoiti yoki tashqi muhit bilan o'zaro munosabatini bildiradi. Populyatsiya, turlar, biosenozlar, biogeosenozlar va biosfera kabi tushunchalar ekologiya fanining manbai hisoblanadi. Shuning uchun ham umumiy ekologiya 4 bo'limga bo'lib o'rganiladi.

1. Aut-ekologiya «autos»- yunoncha so'z bo'lib «o'zi» degan ma'noni bildiradi. Ayrim turlarning ular yashab turgan muhit bilan munosabatlarini turlarning qanday muhitga ko'proq va uzviy moslashganligini yoritadi.

2. Populyatsion ekologiya «populyason» - fransuzcha so'z bo'lib, «aholi» degan ma'noni bildiradi. Populyatsiyalar dinamikasi, ma'lum sharoitda turli organizmlar sonining o'zgarishi biomassa dinamikasi sabablarini tekshiradi.

3. Sin ekologiya «sin» - yunoncha so'z bo'lib, uning ma'nosi «birgalikda» demakdir. Biogeosenozlarning tuzilishi va xossalarini, ayrim o'simlik va hayvon turlarining o'zaro aloqalarini hamda ularning tashqi muhit bilan bo'lgan munosabatlarini o'rganadi.

4. Biosfera «bios»- hayot- «sfera»- shar so'zlaridan olingan bo'lib, ekosistemalarni tadqiq qilishning rivojlanishi ushbu ta'limotni vujudga keltirgan.

Ushbu talimot asoschisi Vernadskiy V.I. hisoblanadi. Sayyoramizda tarqalgan organizmlar, ya'ni yer qobig'idagi mavjudotlar tizimi biosfera deb ataladi. Hozirgi vaqtda ekologiya juda keng p tarmoqlari mavjud. Jumladan



filologik ekologiya, bioximik ekologiya, poliekologiya, landshaftlar ekologiyasi, qishloq xo'jaligi ekologiyasi, ijtimoiy ekologiya va inson ekologiyasi, koinot ekologiyasi kabi qator tarmoqlar vujudga keladi. Ekologiya ilmiy tadqiqot ishlarida bir qancha uslublardan foydalanadi. Ularning keng tarqalgani quyidagilar:

1. Tasviriy
2. Taqqoslash
3. Tajriba
4. Modellashtirish.

Tasviriy, taqqoslash va tajriba uslublari deyarli barcha biologik fanlarda foydalaniladi. Ammo modellashtirish yangi rivojlanayotgan uslublardan hisoblanadi. Fan texnika sohasida ro'y bergan inqilobiy o'zgarishlar va sanoat va transportning tez o'sishi, aholining ko'payib borishi, urbanizatsiya xodisasi, shaharlarning kengaya borishi, shaharlar ta'sirining orta borishi, qishloq xo'jaligida kimyolashtirishning kuchli ta'siri va boshqa hollar, bir tomondan tabiiy resurslardan ko'proq foydalanishga olib kelsa, ikkinchi tomondan atrof muhitga salbiy ta'sirlarini ortishiga olib keladi. Natijada tabiiy resurslarning miqdori va sifatiga putur eta boshladi.¹ Bunday munosabatni bartaraf etish hozirgi kunda ekologiya oldiga qo'yilgan birdan-bir dolzarb muammodir. Bu muhim masalani hal etishning amaliy va ilmiy asosi -tabiatni muhofaza qilishdir. Tabiiy fanlar tabiiy resurslarning antropogen dinamikasi qonuniyatlarini, ularning murakkab o'zaro aloqalarini o'rganadi. Bu dinamikaning inson uchun ahamiyatini aniqlaydi, tabiiy boyliklardan ratsional foydalanishni asoslab beradi. Hozirgi avlod va kelajak avlod uchun muhim bo'lgan tabiiy resurslarning miqdor va sifat xususiyatlarini - saqlash va tiklash usullarini ishlab chiqarish lozim.

Yer yuzida har yili 4 mlyard tonnadan ortiq neft, gaz 2 mlyard tonnadan ortiq komir yoqilib, 20 mlyard tonna har xil ma'danlar qazib olinadi. uning chang tozonlari, zaharli gazlar, tutun - qurumlari atrofga chiqib uni ifloslantirmoqda. Bularning hammasi insonning tabiatga ko'rsatgan ta'sirining natijasidir. Shunday ekan, tabiatdan to'g'ri foydalanish, tabiat qonunlari bilan hisoblashish va unga rioya qilish shartdir. Aks holda inson qator salbiy oqibatlarga duch keladi. Bugungi kunda shunday oqibatlarga duch kelmoqdamiz ham. Masalan, bundan 3000 yil ilgari yer sharidagi quriqlik yuzasi umumiy maydonining 47 % ni o'rmonlar tashkil qilgan edi.

¹ Djurayeva, D., Salimova, M., Abduraimova, B., & Foziljonova, G. (2023, June). TODAY'S ENVIRONMENTAL PROBLEMS AND WAYS TO SOLVE THEM. In International Conference on Multidisciplinary Research (Vol. 1, No. 2, pp. 68-71).



Insonning oʻrmonlardan rejasiz ravishda foydalanishi natijasida hozir uning miqdori 27% ga tushib qoldi. Bu esa 2 mlyardga yaqin unumdor yerning eroziyaga uchgashiga sabab boʻldi. Bu korsatgich butun quriqlik maydonining 15% ni tashkil qiladi. Bundan tashqari bir qancha muammolar dasturda oʻz aksini topgan. Faqatgina ularni izchillik bilan hal qilmoq darkordir.

Ekologiya fan sifatida biologiyaning sohalari fiziologiya, genetika, biofizikaga asoslanadi. Shuningdek, biologiyadan tashqari fizika, ximiya, geologiya, geografiya, matematika va boshqa fanlar bilan bogʻlangan. Ekologik tadqiqotlarning samarali olib borilishi natijasida «Geografik ekologiya», «Kimyoviy ekologiya», «matematik ekologiya» va boshqa tushunchalar joriy qilindiki, ular ekologiyaning naqadar rivojlanayotganligidan dalolat beradi. Hozirda inson oʻz yashash doirasini keskin kengaytirgan, uning qadami nafaqat yer tevarak atrofidagi boʻshliqlarga, balki uzoq fazo boʻshliqlariga ham etib boradi. Bu holat butunlay yangi muammolarni keltirib chiqaradiki, ular tibbiyot ekologiyasi bilan yaqindan bogʻliq boʻlgan antropo-ekologiyasini oʻrganadi. Inson va mashinalarning oʻzaro munosabatlari toʻgʻrisidagi fan Ergonomika nomini olgan va mehnat muhofazasining bir qismi hisoblanadi. TMQ fanining ham boshqa fanlar bilan oʻzaro aloqadorligi mavjud. Hozirgi kunda TMQ ning ayrim muammolari bilan geografik, biologik, tuproqshunoslik kabi qadimiy fanlar, shuningdek ulardan ajralib chiqqan biogeoximiya, gidrobiologiya, geogigiena kabi yangi sohalar ham shugʻullanmoqda. Ekologiya va tabiiy fanlarining rivojlanish tarixi uzoq oʻtmishga borib taqaladi. Tirik organizmlar hayotining tashqi muhit bilan bogʻliqligi haqidagi fikr qadimdan maʼlum boʻlgan. Antik davrda yashagan faylusufnlarning asarlarida hayvonlarning turli instiktlari, baliqlar va qushlarning migratsiyalari, oʻsimliklarning tashqi qiyofasi, tuproq va iqlim sharoitlari bilan bogʻliqligi, tabiatni muhofaza qilish haqidagi malumotlar keltiriladi.

Jumladan Oʻzbekiston va markaziy Osiyoda ham Ekologiya va TMQ boʻyicha olib borilgan ishlar oʻzining uzoq tarixiga ega. Orta asrlarda yashab ijod etgan olimlardan Muhammad Muso Al- Xorazmiy, Abu-nasr Farobiy, A.R.Beruniy, A.A.Ibn Sino va boshqa allomalarimiz ushbu fanlarning rivojlanishiga katta hissa qoʻshishgan. Muhammad Al-Xorazmiy 847 yilda «Kitob surat al-arz» degan asarlarini yozgan. Unda dunyo okeanlari, quruqligi qitalar, qutblar, ekvatorlar, gullar, togʻlar, daryolar va dengizlar, koʻllar, oʻrmonlar, shuningdek boshqa tabiiy resurslar yerning asosiy boyliklari haqida ma'lumotlar keltirilgan.² A.N. Farobiy ham

² Qahharov, A., & Djurayeva, D. (2023). KIMYO DARSLARIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI. Молодые ученые, 1(6), 66-72.



tabiatshunoslikning turli tarmoqlari bilan shug'ullangan bo'lib uning «Kitob al-xajm va al-miqdor» , «Kitob al-mabodi-insonie» insonning boshlanishi haqida kitob va boshqa asarlari bunga dalil bo'la oladi. Farobiy tabiiy va inson qo'li bilan yaratilgan narsalarni ajratgan. U tabiiy narsalar tabiat tomonidan yaratiladi, degan xulosaga keladi. Tabiatga inson omilining ta'siri katta ekanligini, tabiiy va sun'iy tanlash hamda tabiatga ko'rsatiladigan boshqa ta'sirlarni atroflicha baholaydi. Abu Rayxon Beruniy (973-1048) koinotdagi hodisalarni taraqqiyot qonunlari bilan tushuntirishga urinadi. U erdagi ba'zi hodisalarni quyoshning ta'siri bilan izohlaydi. Uningcha, inson tabiat qoidalariga rioya qilgan holda borliqni ilmiy ravishda to'g'ri o'rgana oladi. Beruniy asarlarida o'simlik va hayvonlarning biologik xususiyatlari, ularning tarqalishi va xo'jalikdagi ahamiyati haqida malumotlar topish mumkin. Beruniyning ilmiy qarashlari asosan; Mineralogiya, qadimgi avlodlardan qolgan yodgorliklar asarida ko'plab uchraydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Djurayeva, D., Salimova, M., Abduraimova, B., & Foziljonova, G. (2023, June). TODAY'S ENVIRONMENTAL PROBLEMS AND WAYS TO SOLVE THEM. In International Conference on Multidisciplinary Research (Vol. 1, No. 2, pp. 68-71).
2. Qahharov, A., & Djurayeva, D. (2023). KIMYO DARSLARIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI. Молодые ученые, 1(6), 66-72.
3. Джураева, Д. (2023). МЕТОДЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВИРТУАЛЬНЫХ ЛАБОРАТОРИЙ В ХИМИИ. Молодые ученые, 1(6), 73-77.
4. Djurayeva, D., Kahharov, D., Asatullayev, Z., & Abdurahmonov, A. (2023, June). REGIONAL ENVIRONMENTAL PROBLEMS AND WAYS TO SOLVE THEM. In International Conference on Multidisciplinary Research (Vol. 1, No. 2, pp. 64-67).
5. Djurayeva, D., & Parpiyeva, D. (2023). EKOLOGIYA FANINI O'QITISHDA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL QILISH. Молодые ученые, 1(7), 18-22.
6. Umarjonovna, D. D., & Olimjon o'g'li, O. S. (2022). O'QUV MAQSADLARI IERARXIYASI TARTIBIDAGI DARSNING TA'LIM SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.
7. Djurayeva, D., Sharipov, A., Komiljanov, S., & Xursanaliyev, S. (2023, May). ENVIRONMENTAL PROBLEMS AND WAYS TO SOLVE THEM. In Международная конференция академических наук (Vol. 2, No. 5, pp. 79-83).



TIKUV BUYUMLARINI LOYIHALASH, MODELLASH VA BADIY BEZASHNING SHART-SHAROITLARI

Umarova O'g'iloy Ibrohimjonovna

1-son kasb-hunar maktabi maxsus fan o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun „Tikuv buyumlarini loyihalash, modellashtirish va badiiy bezash“ masalalarining bayoniga bag'ishlangan. Undan o'quvchilar ushbu fan asoslarini zamon talablariga muvofiq o'rganishda foydalanishlari mumkin. Maqolada malakali kichik mutaxassis tayyorlaydigan „Maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar“ yo'nalishidagi kollej talabalariga mo'ljallangan bo'lib, undan bolalar madaniyat markazlari to'garak rahbarlari, shuningdek, shu sohaga qiziqqan keng kitobxonlar ommasi foydalanishlari mumkin.

Kalit so'zlar: Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, loyihalash, drapirovka, gumanistik ideologiya, fantaziya, erkin uslub.

Ta'lim va tarbiya sohasidagi chuqur islohotlarni amalga oshirish, „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“ vazifalarini ro'yobga chiqarish, yuqori malakali kadr, barkamol shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishda barcha ta'lim muassasalari oldiga murakkab, ko'p qirrali va mas'uliyatli vazifalar yuklangan. O'zbekiston Respublikasining „Ta'lim to'g'risida“gi qonuni hamda „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“da o'rta maxsus, kasbhunar ta'limini yangi ti'ddagi ta'lim muassasasi sifatidagi rivoji, pedagog kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilgan. Bu masalalarni hal etishda kasb-hunar kollejlari ishlab chiqarish ta'limini tashkil etish, ta'lim metodlarini tanlash va yangilarini ishlab chiqish davr talabi bo'lib qolmoqda. Milliy dasturda ko'rsatib o'tilganidek, o'rta maxsus, kasb-hunar kollejlari o'quvchilarga o'zlari tanlagan kasb-hunar yo'nalishlari bo'yicha maxsus bilimlar beriladi va kasb-hunarga o'rgatiladi. Hozirgi kunda ikki mingga yaqin kasb-hunar kollejlari turli xil yo'nalishdagi kichik mutaxassislar tayyorlanmoqda. Malakali kichik mutaxassis tayyorlaydigan kasb-hunar kollejlari qatoriga „Maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar“ yo'nalishidagi kollejlarni kiritish mumkin. Mazkur kollejlarda mutaxassislik fanlariga kiruvchi „Tikuv buyumlarini loyihalash, modellashtirish va badiiy bezash“ fani o'qitiladi. Respublikamizdagi kichik tikuvchilik korxonalari, qo'shma korxonalar va yakka buyurtma asosida tikish korxonalari ishlab chiqaradigan mahsulotlar aholining kiyimga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi. Shuning uchun oliy o'quv yurtlarida, kasb-hunar kollejlari, umumta'lim maktablarida, maktabdan tashqari muassasalarda talaba-yoshlarni tikuvchilik korxonalarida xizmat qilishga tayyorlash ishlariga hamda ta'lim muassasalarida olgan 4 mutaxassisligi bo'yicha bilim bera oladigan malakali kadrlar tayyorlashga e'tibor qaratilmoqda.



O‘zbekiston Respublikasidagi kichik tikuvchilik korxonalari, qo‘shma korxonalar va yakka buyurtma asosidagi tikuvchilik korxonalari keng iste‘molchilar ommasi ehtiyoji va didini qondiradigan xilma-xil kiyimlar ishlab chiqarmoqda. Bu sohani rivojlantirishda xizmat qiluvchi kichik mutaxassislarni kasb-hunar kollejarida tayyorlanadi. Ularga maxsus fan sifatida „O‘kuv buyumlarini loyihalash, modellar yaratish, asosiy andazalardan model andazalarini chiqarish va unga bezaklar tanlash shu fanning asosiy maqsadidir. Loyihalash — bu murakkab ijodiy jarayon bo‘lib, unda har qanday buyumning, jumladan, kiyimning ham loyihasini ishlab chiqish ko‘zda tutilgan. Kiyimni loyihalash deganda, kiyimni tashkil etadigan detallar va materiallar kompleksi, shuningdek ularni o‘zaro ulab-tikib, muayyan o‘lchovdagi va shakldagi yaxlit buyum holiga keltirish usullari, vositalari tushuniladi. Loyihalash jarayonida buyumning hajmli detallarini, tekislikdagi tasvirini hosil qilishdan iborat bo‘ladi. Detailarning o‘lchov soni va shakli ular yig‘ilganda xuddi shu o‘lchov va ko‘rinishini beradi.¹ Kiyimlarni loyihalashda gavdadan o‘lchov olish qoidalari va o‘lchovlar asosida buyum asos chizmasini chizish, so‘ng chizmadan andaza chiqarib tayyorlash qoidalari o‘rgatiladi. Kiyimni loyihalash bilan turli muassasalar shug‘ullanadi. Bular — modalar uyi, tikuvchilik korxonalarining tajriba sexlari, maxsus loyihalash idoralari, ilmiy-tekshirish institutlari va laboratoriyalardir. Kiyimlarni modellashtirishda kiyim modelini ijod qilish va asosiy andazadan model andazasini tayyorlash yo‘llari o‘rgatiladi. Bunda asos chizmasiga eskiz bo‘yicha model chiziqlari kiritilib, yangi model andazasi hosil qilinadi. 6 Kiyimlarni badiiy bezashda esa kiyimga turli bezaklarni kiyim turiga va vazifasiga qarab berib, ularni bezatish yo‘llari o‘rgatiladi. Bunda kiyimning assortimentiga, gazlamasiga, kiyimning kimga mo‘ljallanganligiga qarab, bezak unsurlarini tanlash ijodiy jarayon ekanligi yaqqol ko‘rinadi.

Kiyim hozirgi mukammal ko‘rinishiga murakkab bosqichlar orqali yetib kelgan. U odamzod rivojlanishining ilk bosqichlarida iqlim ta‘siridan himoya topmoq vositasi sifatida paydo bo‘lgan. Kiyimning dastlabki ko‘rinishlari ibtidoiy davr odamlarining qabila bo‘lib yashagan vaqtiga to‘g‘ri kel. Bu davrda insonlar daraxt barglari, poxollar, hayvon terilarini tanaga beldan bog‘lab yurishgan. Kiyim insonning ijtimoiy hayoti, mehnat faoliyati va ongining rivojlanishi tufayli rivojlanib bordi. Kiyimning keyingi ko‘rinishi turli o‘simlik va hayvonot mahsulotlaridan to‘qilgan oddiy gazlamalarni tanaga o‘rab yurishdan iborat edi. Qadimgi Gresiyada erkaklar kiyimi ikki qismdan — xiton va gimatiydan iborat bo‘lgan. Xiton — bu ichki kiyim bo‘lib, jun yoki zig‘ir tolali gazlamadan tayyorlangan. Erkaklar biror yumush bilan ko‘chaga chiqayotganda ustki kiyim — gimatiyni kiyib olishgan. Gimatiy to‘g‘ri to‘rtburchak shakldagi, 1,7x4 m o‘lchamdagi gazlamadan iborat bo‘lib, uni yelka ustida bog‘lab yoki yelkaga tashlab quyib, gavdaning tabiiy

¹ 1.Kamilova X.X. Xamrayeva N.K. «Tikuv buyumlarini konstruksiyalash». Darslik. – T.: «Cho‘lpon », 2011 y. – 400 b



go‘zalligi va harakat bemaloligini ko‘rsatadigan hamda unga xalaqit bermaydigan nafis taxlamalar tushirib drapirovka qilib qo‘yilgan.

Ayollar kiyimi ham erkaklar kiyimiga o‘xshab ikki qismdan iborat bo‘lib, ular kiyimi yopiqroq va uzunroq bo‘lgan. Ichki kiyimi — xiton va ustki kiyimi peplos deb atalgan. Peplos 1,5x3,5 m o‘lchamdagi gazlamadan iborat bo‘lgan. Qadimgi yunonlar va rimliklar bunday burmalangan kiyimlarni ustalik va yuqori did bilan bajarganlar. Tabiatshunoslik, samo fanlarining kelib chiqishi kiyimga o‘z ta‘sirini o‘tkazgan. Kiyim gazlamasi turlari paydo bo‘lgan (yupqa, qalin, shoyi, ip tolali gazlamalar). Keyinchalik kiyimda tananing qismlariga alohida gazlamalarni o‘rab tayyorlash, bo‘ylab biriktirish mehnat qilish uchun ancha qulaylik tug‘dirgan.

Ayniqsa, ignaning kelib chiqishi kiyim qismlarini biriktirib tikishda uning takomillashishiga olib kelgan. XIII asrga kelib kiyimda yoqalar, yeng, manjetlar, cho‘ntaklar, taqilmalar shakllangan. Bu vaqtga kelib kiyimning tashqi ko‘rinishida, gazlamasida, bichilishida o‘zgarishlar tez rivojlangan. Kiyimning gavdaga yopishgan, etaklari hajmli, qavatli ko‘rinishlari, gazlamalarning atlas, barxat, movut kabi turlari paydo bo‘lgan. Yevropa mamlakatlarida feodalizm mustahkam qaror topgan o‘rta asrlar davrida maxsus estetik ideal va shunga mos kostyum harakteri tarkib topgan. Odamzot gavidasining go‘zalligidan zavqlanish nomunosib va gunoh ish hisoblanib, gavidani qo‘poldan-qo‘pol, og‘ir, keyinchalik esa cho‘ziq shakllarga o‘rab tashlangan. O‘or, yuqori qismi qator-qator murakkab taxlamalardan iborat, orqa etagi juda uzun, ko‘ylak baland konussimon bosh-kiyim va nihoyatda cho‘ziq poyafzal bilan birga qo‘shilgan holda qaddi-qomat ko‘rinishini o‘zgartirib yuborar edi.² O‘rta asrlarda kostyum gavidani turli vositalar (shnurlar, korsetlar) yordamida qattiq qisib, tabiiy shakldan uzoqlashtiradigan „g‘ilof“ sistemasi rivoj topishini boshlab berdi.

Uyg‘onish davrida (XVI-XVII asrlar) estetik dunyoqarashni qayta baholash yuz berdi, ya‘ni gumanistik ideologiyalar shakllandi. Bu davrda ayollar kiyimi juda noqulay — qattiq, harakatga xalaqit beradigan holatda bo‘lgan. Ikki qavatli kiyim bir vaqtda kiyilib, beldan etak qismiga karkas yordamida konussimon shakl ko‘rinishida bo‘lgan. Yubka qismida hech qanday burmalar bo‘lmay, karkasga tortib qo‘yilgan. Ko‘ylakning yuqori lif qismi juda tor bo‘lib, pastga tomon burchak shaklida tugallangan edi. Bu davrda ayollar belni xiðcha qilib ko‘rsatish maqsadida korsetlar kiyishgan. Erkaklar kiyimi esa siðo va sodda ko‘rinishda bo‘lgan. Kashtali ko‘ylak, keng kamzul, triko va kalta shar shakliga o‘xshab ketuvchi pantolonlar kiyilgan. XVIII asr (Barokko davri) larga kelib kiyimda xashamatdorlik juda avj oldi. Bu davr ayollarining kiyimi shakllarining nazokatlilik, murakkabligi bilan va g‘aroyib jimjimadorligi bilan farq qilgan. Kostyumda gavidaning bel qismi, ko‘krak, bo‘ksa ko‘zga tashlanib turgan. Kostyum yengil, nozik bo‘lib, boshdan-oyoq unga gul tikilgan, tyuldan, gabsimon materialdan, to‘qima to‘rdan, „ko‘pchitib“ qo‘ygandek bezatilgan. Ayollar ko‘ylagining bezagiga alohida e‘tibor berilgan.

² Янчевская Е.А. Ayollar ust- kiyimlarini konstruksiyalash T.: «O‘qituvchi 1998 yil. – 320 b



